

GLOBAL YEYROBLIGATSIYALAR BOZORI VA UNDA O'ZBEKISTON ISHTIROKINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI

G'afurov Olimjon G'olib og'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univristeti Iqtisodiyot fakulteti Moliya kredit kafedrası o'qıtuvchısı

Muxiddinov Nuriddin Mahamadamin o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univristeti talabası

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352360>

***Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda mavjud kapital bozorini holatini Respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni, uning iqtisodiyotga ta'siri, mazkur tizimning rivojiga to'sqinlik qiluvchi argumentlarni o'rganish, tizimning salbiy oqibatlarini yumshatish va kapital bozorini yangi bosqichga olib chiqish masalasi, tezkor choralarni ko'rish yoritib berildi. Bu islohatlarda yurtimizdagi faollik va dunyo hamjamiyatining o'rni yoritib berildi. Iqtisodiyotimiz sub'ektlarining uzoq muddatli investitsiyalarini jalb qilish va xalqaro kapital bozoriga chiqish salohiyati o'rganildi, tahlil qilindi. Ushbu jarayonni amalga oshirayotgan xo'jalik sub'ektlari faoliyatida yuz berayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rganildi. Xalqaro kapital bozoriga chiqishda O'zbekiston hokimiyati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, nazariy va amaliy yordamlar tahlil qilindi. Mazkur faoliyatning istiqboli uchun xulosa va takliflar berildi.*

***Kalit so'zlar:** Yevroobligatsiyalar, kapital, xalqaro kapital bozori, investitsiya, investitsion jozibadorlik.*

МИРОВОЙ РЫНОК ЕВРООБЛИГАЦИЙ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАСШИРЕНИЯ УЧАСТИЯ В НЕГО

***Аннотация.** В статье рассматривается роль современного состояния рынка капитала в Узбекистане в экономике республики, его влияние на экономику, исследование аргументов, препятствующих развитию данной системы, вопрос смягчения негативных последствий система и вывести рынок капитала на новый этап, приняв оперативные меры, видение было просветлено. В этих реформах была подчеркнута активность в нашей стране и роль мирового сообщества. Изучен и проанализирован потенциал субъектов нашей экономики по привлечению долгосрочных инвестиций и выходу на международный рынок капитала. Изучены экономические показатели хозяйствующих субъектов, осуществляющих этот процесс. Проанализированы реформы, теоретическая и практическая помощь, осуществляемая узбекскими властями при выходе на международный рынок капитала. Были даны выводы и предложения по перспективам этой деятельности.*

***Ключевые слова:** еврооблигации, капитал, международный рынок капитала, инвестиции, инвестиционная привлекательность.*

THE GLOBAL EUROBOND MARKET AND PROSPECTS FOR EXPANDING PARTICIPATION IN IT

Annotation. In the article, the role of the current state of the capital market in Uzbekistan in the economy of the Republic, its impact on the economy, the study of the arguments that prevent the development of this system, the question of mitigating the negative consequences of the system and bringing the capital market to a new stage, taking prompt measures the vision was enlightened. In these reforms, the activity in our country and

the role of the world community were highlighted. The potential of the subjects of our economy to attract long-term investments and enter the international capital market was studied and analyzed. The economic indicators of economic entities implementing this process were studied. The reforms, theoretical and practical assistance implemented by the Uzbek authorities in entering the international capital market were analyzed. Conclusions and suggestions were given for the perspective of this activity.

KEY WORDS: Eurobonds, capital, international capital market, investment, investment attractiveness

KIRISH

Iqtisodiyotda kapital bozorining tutgan o'rnini juda ahamiyatli hisoblanadi. Xalqaro yevroobligatsiyalarni harakat oqimini tog'ri boshqarish tez fursatlarda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Iqtisodiyotga uzoq muddatli investitsiyalarning oqimi respublikada ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalarini, iqtisodiy infratuzilmalarni, mamlakatdagi ijtimoiy muhitni ijobiylashishiga olib keladi. Mavzuning dolzarbliligi shundan iboratki, kapital bozorining barqarorligini ta'minlash uchun mamlakatda mazkur tizimning qonuniy asoslarini tizimli tahlil qilish, ularni ishlashini ta'minlash xo'jalik sub'ektlari faoliyatiga salbiy tashqi ta'sirlarni yo'qotish, investitsiya jozibadorligi ustida ishlash, tizimlarni moslashtirish mexanizmlarining foydaliligini oshirish, tizimni isloh qilish va xorij tajribasini o'rgangan holda tadbirlar olib borish hozirgi davrning kechiktirib bo'lmaz masalasidir. Kapital bozori isloh qilinmasa iqtisodiy samaraga erishib bo'lmaydi. Shu davrgacha qonunlarning bir-birini rad qilishi, o'zgarishlarning tez-tez kuzatilishishi, valyuta konvertatsiyasi cheklanganligi mamlakatga resurs oqimining kamayishiga, mavjudlarining qayta investitsiya qilinmasligiga asosiy sabablardan biri bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida, bank tizimi va kapital bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligiga, shu jumladan tijorat banklari uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish maqsadida xalqaro kapital bozoriga chiqishi zarurligiga alohida e'tibor qaratdilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish natijasida yevroobligatsiyalarning xalqaro nufuzi, ularning xalqaro kapital bozorida operatsiyalari takomillashtirish yuzasidan bir qator olimlar va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Prof. S.E.Elmirzayev, M.N.Raxmedova, H.Xoliqov "Suveren yevroobligatsiyalardan tushgan mablag'larning qayta taqsimlanishi va ularning samaradorligi", "Xalqaro moliya va hisob" imiy electron jurnali. 3, iyun, 2020-yil.

N.N.Hasanov "Theoretical and methodological approaches to attracting financial resources from the capital market to the corporate sector". "International Journal of Innovation and Economic Development". Pages 30-35, February 2020.

Xorijlik iqtisodchi olimlar Cull va Martines Peria fikriga ko'ra banklar o'z faoliyatini yanada rivojlantirish va yuqori samaradorlikka erishish uchun riskni diversifikatsiya qilgan holda xorijiy mamlakatlarda operatsiyalarini amalga oshiradi. Xalqaro fond bozori, 2010.

Uzoq xorij tadqiqotchi olimi Anders Lindgren -Yevroobligatsiyalarning nazariy asoslari., 2011.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishi jarayonida iqtisodiy jarayonlarni o'rganishning ilmiy usullari - umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, qiyosiy tahlil, istiqbolli prognozlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Yevroobligatsiyalarda emitent sifatida maydonga hukumatlar, milliy va xorijiy tuzilmalar chiqadi. Ya'ni yevroobligatsiyalarni muomalaga chiqaruvchilar. Investorlar sifatida moliyaviy tuzilmalar – sug'urta kompaniyalari pensiya jamg'armalari va boshqalar. Yevroobligatsiyalar investorga ma'lum foiz evaziga, ma'lum vaqtda daromad olib keluvchi qimmatli qog'oz hisoblanadi. Yevroobligatsiya investorga foiz olish huquqini beradi. Foiz stavkasi qat'iy yoki o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Yevroobligatsiya emitenti uchun qarz majburiyati hisoblanadi. Yevroobligatsiyalar qisqa muddatli, o'rta va uzoq muddatli bo'ladi. Qisqa muddatli 1 yilgacha, o'rta muddatli 10 yildan 30 yilgacha va uzoq muddatli 40 yilgacha muddatda beriladi.

Ushbu obligatsiya turi birinchi bo'lib Italiyada chiqarilgan va hozirgacha yevropa davlatlarida faol harakatlanadi. Bunday qog'ozlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- bular taqdim etuvchi qimmatli qog'ozlar;
- bir vaqtning o'zida bir nechta bozorlarga joylashtiriladi;
- uzoq muddatga beriladi - qoida tariqasida, 10-30 yil (40 tagacha);
- kredit jalb qilingan valyuta ham emitent, ham investor uchun xorijiy bo'lsa;
- yevrobond dollar ekvivalentiga ega;
- kuponlar bo'yicha foizlar soliq ushlab qolinmasdan to'lanadi;

Yevroobligatsiya emitentining ushbu obligatsiya chiqarishdan asosiy maqsadi muqobil moliyaviy resurslar izlashdir. Undan tashqari yevroobligatsiya emitentiga ko'plab qulayliklar yaratadi. Kapitalni jalb qilishda xarajatlarni 20% gacha tejash. Emitent yevroobligatsiyalarni bir vaqtning o'zida bir necha davlat kapital bozoriga chiqara oladi. Emitent tomoniga kamroq majburiyatlar yuklanishidir.

Yevroobligatsiyalar 2 xil yo'l bilan muomalaga chiqariladi. Yevrobondlar fond birjasiga chiqariladi yoki ma'lum bir investorlar doirasida joylashtiriladi.

Mamlakatimizda ilk yevroobligatsiyalar 1996-yilda chiqarilgan bo'lib, uni joylashtirish huquqi Moskva va Sank-Peterburgga berilgan.

“O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ (keyingi o'rinlarda – O'zmilliybank yoki emitent) tomonidan London fond birjasida 5 yillik 300 million dollarga teng yevroobligatsiyalar muomalaga chiqarildi va shu bilan xalqaro kapital bozorining to'laqonli ishtirokchisiga aylandi. O'zmilliybank xalqaro moliya institutlarining mablag'larini jalb etish va iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ustuvor va strategik ahamiyatga ega investitsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha respublikaning yetakchi bankidir. Yevroobligatsiyalarning debyut emissiyasi O'zmilliybank tomonidan Citibank (AQSH), Natixis (Fransiya), SMBC Nikko (Yaponiya) va Gazprombank (Rossiya) kabi xalqaro miqyosda tan olingan andarrayting banklari bilan birgalikda amalga oshirildi.

Bank tomonidan jalb qilingan mablag'larni iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo'lgan yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishga va tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 28-dekabrda “ O‘zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirishni yangi bosqichga olib chiqish, ularni jalb qilishda mamlakat investitsiya siyosatida investitsion jozibadorlikni oshirish yo‘llari va kelgusida prognoz natijalar keltirib o‘tilgan. Ushbu vazifani bajarishda albatta maydonga respublikada faoliyat olib borayotga tijorat banklarining o‘rni va ro‘li yuqori hisoblanadi. Ushbu qarorda xorijdan investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy davlatlarning tajribasi ham tahlil qilingan. Hozirda Respublikamizda faoliyat olib borayotgan bir necha banklar o‘z faoliyatini samaradorligini oshirish yo‘llaridan biri bo‘lgan yevroobligatsiyalarini xalqaro fond bozorlariga muvaffaqiyatli joylashtira olganlar.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan joylashtirilgan yevroobligatsiyalar to‘g‘risida ma‘lumot

Emitent nomi	Hajmi	So‘ndirish muddati	Qolgan muddat(yil)	Muomala davri
Milliy bank	300 mln	21.10.2025	1.9	5
O‘z.san.qur. bank	300 mln	2.12.2024	1.2	5
Ipoteka bank	300 mln	19.11.2025	2	5

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki yurtimizda tijorat banklari xalqaro fond bozorida yevroobligatsiyalar emissiyasi bilan ishtirok etmoqda. Bu albatda tijorat banklarining kapital oqimining jadallashishiga katta yordam bermoqda. Hozirgacha bo‘lgan davrda yevroobligatsiyalarning daromadlari xalqaro bozor qatnashchilarinikidan pastligi, mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan mutahasislarning saviyasi yuqori emasligini, ularni xalqaro darajada muntazam malakasini oshirish kerakligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, global yevroobligatsiyalar bozorida xalqaro moliyaviy operatsiyalar jadal rivojlanib bormoqda. Ushbu standartlarga javob beradigan kadrlarni tayyorlash hozirda o‘tkazilishi kerak bo‘lgan islohatlardan asosiylar hisoblanadi. Kelgusida yevroobligatsiyalar bozorida O‘zbekistonning ishtirokini kengaytirish xalqaro moliya bozorida kapital resurslar ulushi ko‘payishiga, kadrlarimizning tajribalari ortishiga, natijada to‘g‘ri vaqtda va makonda joylashtirilgan yevroobligatsiyalar samaradorligi oshishiga olib keladi. Iqtisodiyotda xo‘jalik sub‘ektlarining keng qamrovda yevroobligatsiyalari muvaffaqiyatli joylashuvi kapital resursining katta miqdorda to‘planishiga va albatda ko‘proq yo‘nalishlarni moliyalashdagi qamrovini ta‘minlaydi. Bu mamlakatimizda investitsion jozibadorligini yaxshilaydi va mamlakatimizni xalqaro darajada yuqori pog‘onalarga olib chiqaradi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasi

2. Prof. S.E.Elmirzayev, M.N.Raxmedova, H.Xoliqov “Suveren yevroobligatsiyalardan tushgan mablag‘larning qayta taqsimlanishi va ularning samaradorligi”, “Xalqaro moliya va hisob” imiy electron jurnali. 3, iyun, 2020-yil
3. N.N.Hasanov “Theoretical and methodological approaches to attracting financial resources from the capital market to the corporate sector”. “International Journal of Innovation and Economic Development”. Pages 30-35, February 2020.
4. Xorijlik iqtisodchi olimlar Cull va Martines Peria fikriga ko‘ra banklar o‘z faoliyatini yanada rivojlantirish va yuqori samaradorlikka erishish uchun riskni diversifikatsiya qilgan holda xorijiy mamlakatlarda operatsiyalarini amalga oshiradi. Xalqaro fond bozori, 2010
5. Anders Lindgren -Yevroobligatsiyalarning nazariy asoslari., 2011.
6. www.el-in.ru
7. www.uzreport.news, 2020-yil
8. www.economyjournal.uz